



UDK:81'42:37.02

Intizor ABDIRIMOVA,

PhD, dotsent, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston

E-mail: intizorabdirimova@gmail.com, ORCID: 0009-0000-3939-3591

SamDU professori, f.f.d A.Aliyev taqrizi asosida

DISCOURSE ANALYSIS METHOD AND ITS IMPORTANCE IN LANGUAGE EDUCATION

Annotation

This article highlights the theoretical foundations of discourse analysis methods and their importance in language education. The oral and written forms of communication are explained. In addition, the possibilities of applying these methods in native language classes are scientifically substantiated. It is scientifically concluded that the use of discourse analysis methods in the educational process is an effective tool for developing students' communicative and discursive competence.

Key words: discourse, discourse analysis, communicative competence, oral and written speech, linguodidactics, pedagogical discourse, critical thinking.

МЕТОД ДИСКУРС-АНАЛИЗА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье освещаются теоретические основы методов дискурс-анализа и их значение в языковом образовании. Разъясняются устные и письменные формы общения. Кроме того, научно обосновываются возможности применения данных методов на уроках родного языка. Делается научный вывод о том, что использование методов дискурс-анализа в образовательном процессе является эффективным средством развития коммуникативной и дискурсивной компетенции учащихся.

Ключевые слова: дискурс, дискурс-анализ, коммуникативная компетенция, устная и письменная речь, лингводидактика, педагогический дискурс, критическое мышление.

DISKURS TAHLILI METODI VA UNING TIL TA'LIMIDAGI AHAMIYATI

Аннотация

Mazkur maqolada diskurs tahlili metodlarining nazariy asoslari hamda ularning til ta'limidagi ahamiyati yoritiladi. Muloqotning og'zaki va yozma shakllari izohlanadi. Shuningdek, mazkur metodlarning ona tili darslarida qo'llanish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Ta'lim jarayonida diskurs tahlil metodidan foydalanish o'quvchilarning kommunikativ va diskursiv kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi ilmiy jihatdan xulosalangan.

Kalit so'zlar: diskurs, diskurs tahlili, kommunikativ kompetensiya, og'zaki va yozma nutq, lingvodidaktika, pedagogik diskurs, tanqidiy fikrlash.

Kirish. Milliy istiqloq tufayli mamlakatimizda jahon andozalariga mos, raqobatbardosh yetuk mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Bugungi kunda yurtimizda barkamol shaxs va yetuk mutaxassislarni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Demak, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yosh avlodni o'qitishda yangicha yondashuvlar, ilg'or pedagogik texnologiyalarga ehtiyoj sezilmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida, xususan, til ta'limida ham kommunikativlik, funkcionallik va kompetensiyaviylik ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Endilikda o'quvchidan faqat grammatik qoidalarni bilish emas, balki ularni nutqiy vaziyatda qo'llay olish, muloqot jarayonini to'g'ri tashkil etish, yashirin ma'nolarni anglash va tahlil qilish talab etiladi. Bu esa diskurs tahlili metodlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishni taqozo qiladi.

"Diskurs" lotincha "diskursus" – "muhokama" so'zidan olingan bo'lib, hissiy, bevosita, isbotli bilim demakdir. Lingvistik pragmatik tadqiqotlarda uch turdagi muloqot ajratib ko'rsatiladi: nutqiy hodisa, nutqiy vaziyat, diskurs, ya'ni mantiqiy fikrlashga asoslangan muloqot [1]. Ushbu nazariy qarashlar diskursni o'rganishda ko'p qirrali metodologik yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida kommunikativ yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois diskurs tahlili metodlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish dolzarb ilmiy-metodik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. XXI asr tilshunosligida diskurs tushunchasi markaziy kategoriyalardan biriga aylandi. An'anaviy struktural tilshunoslik tilni yopiq tizim sifatida o'rgangan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar tilni ijtimoiy-madaniy, pragmatik va kognitiv omillar bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin etadi. Shu jihatdan diskurs nafaqat matn, balki uni yuzaga

keltiruvchi kommunikativ vaziyat hamdir. Til ta'limida diskurs tahlilining ahamiyati shundaki, u o'quvchilarni matn yuzaki o'qishdan chuqur semantik va pragmatik tahlil darajasiga olib chiqadi. Diskursiv yondashuv orqali o'quvchilar nutqiy birliklarning asosiy ma'nosini, kommunikativ maqsadini, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liqligini anglay boshlaydi. Natijada ularda nafaqat lingvistik, balki diskursiv va kommunikativ kompetensiya ham shakllanadi. Shuningdek, globallashuv va axborot oqimining kuchayishi sharoitida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Diskurs tahlili metodlari aynan shu ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi, chunki ular matn ortidagi mafkuraviy, ijtimoiy va psixologik omillarni aniqlash imkonini beradi.

"Diskurs" tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda lingvistik atama sifatida o'tgan asrning o'rtalarida qo'llana boshlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.Saxiyevaning ta'kidlashicha, diskursiv kompetensiya muayyan bilimlar tizimi va ko'nikmalar majmuidir. U nafaqat leksik-grammatik hamda sintaktik me'yorlarga tayanadi, balki uslubiy talablar, janr xususiyatlari hamda ijtimoiy-madaniy va psixolingvistik omillarning o'zaro muvofiqligini ham ta'minlaydi. Til ta'limida diskursni o'rganish o'quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini, balki nutqiy faoliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning turli vaziyatlarga mos og'zaki va yozma nutq tuza olish qobiliyati diskursiv kompetensiya termini bilan ham atalmoqda. Mutaxassislar diskursni turlicha, ya'ni nutqiy faoliyat jarayoni hamda so'zlashish uslubi kabi ikki xil mazmunda talqin etishadi. O'zbek tilshunosligida diskurs borasida lingvistik

tadqiqotlar tilshunos Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan. U matn va diskurs muammolari to'g'risida quyidagilarni bayon etadi: "Agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo'lsa, ularni faqatgina zohiriy - formal ko'rsatkichga asosan "og'zaki" va "yozma" sifatlari bilan farqlash imkoniga gumonim bor [2]. Maqsadli ifodalangan kommunikativ mazmun va so'zlovchining istagi bilan bog'liq bo'lmagan holda tinglovchi idrokida hosil bo'ladigan informativ mazmun bir-birini inkor etmaydi, balki ular o'zaro birikib muloqotning samaradorligini ta'minlovchi muhim omilga aylanadi. Shundan kelib chiqib diskursni muloqot desak, muloqotning ikki xil – og'zaki va yozma shakli mavjud. Ona tili ta'limida bugungi hayotiy ko'nikmalarga asoslangan darsliklarda aynan o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsad qilib olingan. O'quvchilarning ona tili ta'limi jarayonida muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish bosh mezondir. Diskurs shunday matnki, unda muloqotning barcha ekstralingvistik tavsiflari pragmatik, sotsiomadaniy, psixologik jihatdan mujassamlangan bo'ladi. Og'zaki va yozma diskurs xususiyatlari shundan iboratki, ko'p asrlar davomida yozma til og'zaki tildan ko'ra ko'proq e'tiborda bo'lganiga qaramay, og'zaki nutq til mavjudligining asl, asosiy shakli, yozma nutq esa og'zaki tilning hosilasi ekanligini bilamiz. Inson tillarining aksariyati hali ham yozilmagan, ya'ni faqat og'zaki ravishda mavjud. O'quvchilar nutqini rivojlantirish, ularning og'zaki va yozma ko'nikmalarini shakllantirish aslida barcha fan o'qituvchilariga tegishli bo'lsa-da, ammo asosiy yuk ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga tushadi, degan tushuncha mavjud. Aslida esa bolalarning nutqi rivojlanishi ularning muloqotga kirishish ko'nikmasining shakllanishi oila va maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanadi. Ona tili fani esa mavjud bilimlarni rivojlantirib, o'quvchilarning turli nutqiy vaziyatlarda muloqotga kirishish qobiliyatlarini rivojlantirish ustida ish olib boradi. Bu esa aynan diskursiv yondashuv ayni vaqtda ona tili ta'limida pedagogik muammo sifatida muhim ekanidan dalolat beradi. Ta'lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Mazkur yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish, o'z fikrini to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir. Shuning uchun har bir mavzu uchun alohida vaziyat beriladi va shu vaziyatda nutq vositasida masalani hal qilish talab qilinadi. Hayotiy ko'nikmalar ma'lum bir nutqiy mavzular doirasida amaliy yo'naltirilgan holda shakllantiriladi. Kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarda faqat yozma matn bilan cheklanib qolinmaydi. Tilning og'zaki va yozma shaklidan darslar davomida baravar foydalaniladi. Ma'lumki, yozma nutq ustida ko'p ishlash og'zaki nutqni o'z-o'zidan rivojlanib qolishiga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va og'zaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtaga birlashsa-da, ularning amalga oshirish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmning ishlashi orqali ta'minlanadi" [3]. O'rta maktabning ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularning muloqotga kirishish ko'nikmalarini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'rta ta'limda bolaning og'zaki nutqi biror fandan o'tilgan ma'lum mavzuni gapirib berishda ko'riladi. Bunda bolaning mavzuni bilish bilmasligi baholanadi, og'zaki nutq mahorati inobatga olinmaydi [4]. O'quvchining og'zaki nutqiga faqat mavzuni bayon qilish vositasi sifatida qaralishi, uning fikrni mustaqil ifodalash, o'z nuqtayi nazarini bildirish kabi muhim kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Bu holat og'zaki nutqni baholashda faqat mazmun doirasidagina yondashilayotganidan dalolat beradi. Aslida esa o'quvchilarning

nutqiy faolligini oshirish uchun ularning fikr yuritish uslubi, muloqotga bildirish madaniyati ham e'tiborga olinmog'i lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o'zining "Lisonut tayr" asarida asar mazmunini o'qib tushunish usulini egallashga chaqirdi. "Mahbul qulub" asarida "Xushnavis kotib so'zga oroyish berur va so'zlaguvchiga osoyish yetkarur" deb chiroyli yozishning va yozma nutq malakasini egallashning barchaga "osoyish" berishini ta'kidladi. "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida talaffuz va imlo so'z qudrati va nutq madaniyati, so'z ma'nolaridan to'g'ri foydalanish, nutqni to'g'ri tuzish kabi masalalarning ilmiy sharhini berish bilan turkiy (o'zbek) tilini chuqur o'zlashtirish metodikasiga ulkan hissa qo'shdi [5]. Haqiqatan ham yozma nutq va og'zaki nutq bir-birini taqazo etadi va odatda og'zaki nutq yozma nutq manbalari orqali boyib boradi. Qomusiy allomalarimiz fikrlarida nutqning, umuman olganda ta'limiy muloqotning o'rni beqiyos ekanligini ko'rish mumkin. Jumladan, Kaykovus "Suxandon kishilar bila ham suhbatda bo'lgil va qanday qilib so'zlash shartlarini ham bilgil", Yusuf Xos Hojib "Uquv va bilimning tilmochi tildir... Agar tilga e'tibor bermasa, uni noo'rin qo'llasa, odam boshi yorilishi hech gap emas", Farobiy so'zning inson hayotida tutgan o'rni va roli haqida: "...so'zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo'lgan-bo'lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga, zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmaydi" deb yozgan bo'lsa, M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida "Adab boshi - til" kabi fikrlar keltiriladi. Buyuk allomalarimizning yuqoridagi fikrlaridan ta'lim va tarbiya jarayonida, so'zning o'rni va ahamiyati, uning inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida nechog'li muhim ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ona tili ta'limida ta'limiy diskursni rivojlantirish o'quvchilarning erkin va mustaqil fikrini bayon etishga xizmat qiladi. Bu esa, so'zning qudrati va uning buyuk kuchga ega ekanligi, ta'limiy jihatdan qaralganda pedagog va o'quvchi o'rtasida eng muhim vosita ekanligi nazarda tutilgan. Shuni aytish mumkinki, nutq ham til faoliyati jarayoni, ham shu faoliyat mahsuli hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Ona tili o'qitishning asosiy maqsadi etib o'z fikrini turli shakllarda tinglovchiga tushunarli va aniq tarzda yetkazib bera oladigan o'quvchilarni tarbiyalash belgilangan. Shu maqsadda yangilangan Milliy dasturda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Diskursiv yondashuv tilga statik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy harakatda bo'lgan vosita sifatida qaraydi. Mazkur yondashuvdan turli ilmiy maqsadlarda, turli matn va kontekstlar bilan ishlashda foydalaniladi. Diskursiv yondashuv jamiyatdagi munosabatlarning til orqali qanday shakllanishini tushunishga yordam beradi. Ona tili ta'limida diskursiv yondashuvdan foydalanish til o'rganish jarayonini rivojlantiradi, muloqot ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarga moslashtiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, diskurs fikrning og'zaki yoki yozma almashinuvidir. Gapdan uzun bo'lgan, izchil ma'no va aniq maqsadni ko'zlagan har qanday bog'langan nutq yoki yozuv birligi diskurs deyiladi. Diskurs tahlil metodini turli nuqtayi nazardan o'rganish va turli ilmiy fanlar orqali tahlil qilish mumkin. Lingvistik va madaniy yondashuvlar ma'noni yaratish jarayonlarini va tildan foydalanishning ijtimoiy-madaniy kontekstini tushunishga imkon beradi. Nutqni o'rganish zamonaviy jamiyatdagi kuch, mafkura va ijtimoiy-madaniy dinamikani tushunish uchun muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 14.
2. Аминова Ф. Ўқувчиларни мулоқот матни яратишга ўргатишнинг дидактик асослари: пед. фан. номз. ... дис. – Тошкент: ЎзПФТИ, 2007. – Б.19.
3. Мавлонова К., Раҳмонқулов А. Она тили (ўзбек тили) таълимидаги ислохотлар / "Паёми донишқада", "Анвори илм", "Тафаккури таърих". нашри муштарак, 2023. № 1. – Б. 513.
4. Azimova I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (Til ta'limiga oid fanlar moduli). Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Hilolnashr, 2020. – B. 52.
5. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 380 b.